



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

2026 yil “20” iyul

232-son

Toshkent sh.

2026/2027-o‘quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabulni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4666-son va 2024-yil 22-yanvardagi “Sog‘liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–38-son qarorlari ijrosini ta‘minlash, shuningdek, 2026/2027-o‘quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul jarayonlarini shaffof, xolis va markazlashgan tartibda tashkil etish maqsadida, **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Klinik ordinatura (rezidentura) orqali tibbiyot kadrlarini 2026/2027-o‘quv yilida tayyorlash bo‘yicha mutaxassisliklar va ularga muvofiq keluvchi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

2026/2027-o‘quv yilida tibbiyot va ta‘lim tashkilotlari kesimida klinik ordinatura (rezidentura)ga umumiy va maqsadli qabul rejasi 2-ilovaga muvofiq;

2026/2027-o‘quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul bo‘yicha mas‘ul kotiblar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

Klinik ordinator (rezident)larni “O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati” fanini o‘qitish uchun tegishli ta‘lim tashkilotlariga biriktirish jadvali 4-ilovaga muvofiq;

Qabul yakunlari bo‘yicha hisobot shakllari 5-ilovaga muvofiq;

Klinik ordinatura (rezidentura)ga o‘qishga qabul qilish uchun hujjat topshirish va tanlov o‘tkazish tartibi 6-ilovaga muvofiq;

2026/2027-o‘quv yilida N.I.Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ta‘lim oladigan ordinatura yo‘nalishlari ro‘yxati va qabul parametrlari 7-ilovaga muvofiq;

Yetakchi xususiy klinikalarni baholash bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligi komissiyasi tarkibi 8-ilovaga muvofiq;

Yetakchi xususiy klinikalarni tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlariga hududlar kesimida birlashtirish taqsimoti 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 18-dekabrda "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 319-son qarori bilan tasdiqlangan Klinik ordinatura to'g'risidagi nizom va mazkur buyruqqa muvofiq amalga oshiriladi;

talabgor hujjatlarni **medtoifa.ssv.uz** axborot tizimi orqali elektron shaklda topshiradi hamda bir qabul mavsumida faqat bitta ta'lim tashkiloti va bitta mutaxassislikni tanlaydi;

qabul jarayonida talabgorlarning teng huquqliligi, shaffoflik, xolislik va axborot ochiqligi ta'minlanadi, shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari rioya etiladi;

test sinovi o'tkaziladigan fanlar majmuasi, baholash mezonlari, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati, test sinovining joyi va vaqti hujjatlarni qabul qilish boshlanishidan oldin Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi;

ikkinchi tor soha mutaxassisligini egallash uchun klinik ordinaturaga qabul faqat talabgorning o'z mablag'lari hisobidan to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

budjet mablag'lari hisobidan o'qitiladigan o'rinlar soni ushbu maqsadlar uchun Davlat budjetida nazarda tutilgan moliyalashtirish hajmi doirasida belgilanadi;

eng yuqori ballning kamida 30 foizini to'plagan hamda reyting natijalariga ko'ra tasdiqlangan qabul parametrlari doirasida tanlovdan o'tgan talabgorlar o'qishga qabul qilinadi;

klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul rejasida belgilangan o'rinlar soni bo'yicha eng past ball olgan talabgorning bali bilan undan keyingi talabgor(lar)ning bali bir xil bo'lganda, ularning barchasi to'lov-kontrakt asosida qabul qilinadi;

ajratilgan grant o'rinlari sonidan ortiq bir xil ball to'plagan talabgor(lar)ning grant asosida o'qitilishi uchun zarur mablag'lar joriy yilda ajratilgan, biroq bo'sh qolgan grant o'rinlari doirasida yoki talabgor hujjat topshirgan muassasa (tashkilot)ning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

3. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-sentabrda 510-son "Birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida faoliyat yuritayotgan shifokorlarning oylik ish haqiga qo'shimcha har oylik ustama to'lanadigan olis va chekka hududlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining 1-band 4-xatboshisi talablariga muvofiq, olis va chekka hududlarda uzluksiz uch yil faoliyat yuritgan shifokorlar klinik ordinatura (rezidentura)ga test sinovlarisiz qabul qilinishi inobatga olinsin.

Mazkur imtiyozni qo'llashda Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga ilova bilan tasdiqlangan olis va chekka hududlar ro'yxatiga amal qilinsin.

Olis va chekka hududlarda uzluksiz uch yil ishlagan shifokorlar tomonidan 6-ilovaga muvofiq taqdim etilgan hujjatlar qabul komissiyasi kotiblari tomonidan mazkur toifaga muvofiqligi, to'g'ri rasmiylashtirilganligi hamda ularning qonuniyligi tekshirilgan holda, klinik ordinatura (rezidentura)ga belgilangan qabul kvotasidan tashqari to'lov-kontrakt asosida test sinovlarisiz qabul qilinishi ta'minlansin.

4. Yetakchi xususiy klinikalarning klinik ordinaturada mutaxassislar tayyorlash bo'yicha talabnomalari 2026-yil 21-iyulga qadar Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etiladi. Bunda, biriktirilgan tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari xususiy klinikalarga qabul, o'quv-uslubiy jarayon, oraliq va yakuniy nazorat hamda yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishda metodik yordam ko'rsatadi.

5. Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini baholash markazi (keyingi o'rinlarda – Markaz) (S.Sharipov):

a) **medtoifa.ssv.uz** axborot tizimi orqali hujjat topshirish va tanlov jarayonlarini tashkil etish choralari ko'rsin;

b) klinik ordinatura (rezidentura)da tibbiyot xodimlarini tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar (keyingi o'rinlarda – Ta'lim tashkiloti) ro'yxatini shakllantirish va axborot tizimiga joylashtirsin;

d) qabul komissiyasi kotiblariga **medtoifa.ssv.uz** axborot tizimi orqali talabgorlarning hujjatlarini qabul qilsin;

e) talabgorlar uchun Ta'lim tashkiloti va mutaxassisligini erkin tanlasin;

f) talabgorlarning bir vaqtning o'zida bir nechta muassasaga hujjat topshirish holatlariga barham bersin;

g) tanlov jarayonlarini talabgorning tanlagan mutaxassisligiga mos ravishda tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari fanlari negizida bir bosqichli test sinovi shaklida o'tkazsin;

h) test sinovi jarayonlari Markazning rasmiy veb-saytida onlayn translyatsiya qilib borishni hamda imtihon natijalarini e'lon qilishni inobatga olsin;

i) test sinovlarini belgilangan muddatda tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy ishlarni yo'lga qo'ysin;

j) tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlari Rayosati bilan hamkorlikda sinovlar uchun test bazalarini shakllantirsin;

k) hujjat topshirgan talabgorlar sonidan kelib chiqib, test sinovi o'tkaziladigan joy va vaqtini belgilasin;

l) klinik ordinatura (rezidentura)ga kirish uchun hujjat topshirgan talabgorlar e'tiboriga test namunalari tafsilotlarini rasmiy saytlarda e'lon qilib borsin.

6. 2026/2027-o'quv yilidan boshlab "Oilaviy shifokorlik" mutaxassisligi bo'yicha klinik ordinatura (rezidentura)ga maqsadli davlat granti asosida qabul hamda o'quv jarayoni tashkil etilsin.

7. Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi direksiyasi (A.Xasanov) N.I.Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti klinik ordinatura dasturlariga 2025/2026 hamda 2026/2027-o'quv yillarida qabul qilingan

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining to'lov-kontrakt summasi, o'qish davrida bir marta ta'lim olish joyiga borish va qaytish uchun aviachipta xarajatlari hamda yashash va kunlik xarajatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda moliyalashtirish choralari ko'rsin.

8. Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori (Sh.Boymuradov) talabgorlarning N.I.Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti klinik ordinatura mutaxassisliklariga qabul bo'yicha onlayn formatda hujjat topshirishi va kirish test sinovlarida ishtirok etishini markazlashgan holda tashkil etsin.

9. Yetakchi xususiy klinikalarni baholash bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligi komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Komissiya) 2026-yil 25-iyulga qadar talabnoma taqdim etgan yetakchi xususiy klinikalarni joyiga chiqqan holda o'rgansin va quyidagilarni:

xususiy klinikalarning Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 18-dekabrda 319-son qarori bilan tasdiqlangan Klinik ordinatura to'g'risidagi nizomning 4-bandida nazarda tutilgan yuqori malakali ilmiy-amaliy kadrlar salohiyati, zamonaviy moddiy-texnika va klinik baza hamda tasdiqlangan ta'lim dasturlariga ega ekanligini;

xususiy klinikaning tibbiy faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi amaldagi litsenziyasi, shuningdek, ta'lim faoliyatining xususiyatidan kelib chiqib qonunchilikda nazarda tutilgan tegishli litsenziya va (yoki) vakolatli organga yuborilgan xabarnoma mavjudligini;

ta'lim sifatini ichki nazorat qilish tizimi, klinik ordinatorlar uchun xavfsiz mehnat va ta'lim olish sharoitlari, bemorlar oqimi, axborot-resurs bazasi hamda amaliy ko'nikmalarni egallash imkoniyatlarini baholasin.

Baholash natijalariga ko'ra 2026-yil 28-iyulga qadar tanlab olingan xususiy klinikalar, ularda tashkil etiladigan klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisliklari, qabul parametrlari, mas'ul kotiblar hamda biriktiriladigan tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi takliflarni vazirlik rahbariyatiga tasdiqlash uchun kiritin.

Tanlab olingan yetakchi xususiy klinikalarda klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul jarayoni mazkur buyruqning 6-ilovasiga muvofiq amalga oshirilsin.

Klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisliklari bo'yicha tanlov jarayonlari Markaz va uning hududiy bo'limlari tomonidan belgilangan tartibda test sinovlari shaklida o'tkazilsin.

10. Ta'lim tashkilotlari rahbarlari hamda qabul komissiyalari mas'ul kotiblari:

qabul to'g'risidagi e'lonni 2026-yil 20-iyulga qadar rasmiy saytlar va ommaviy axborot vositalarida joylashtirsin, bunda hujjatlarni qabul qilish muddati e'lon berilgan kundan boshlab kamida 30 kunni tashkil etishi ta'minlansin;

talabgorlarning hujjatlarini 2026-yil 20-avgust kuni soat 23:59 ga qadar **medtoifa.ssv.uz** axborot tizimi orqali qabul qilsin;

2026-yil 11-avgustga qadar test sinovlarini tashkil etish bo'yicha Markaz bilan shartnoma rasmiylashtirsin va xarajatlarni tasdiqlangan smeta hamda shartnoma shartlariga muvofiq moliyalashtirsin;

2026-yil 20-iyuldan 10-sentabrga qadar dushanba-shanba kunlari soat 9:00 dan 18:00 gacha faoliyat yuritadigan murojaatlar markazi (Call-markaz) ishini tashkil etsin va aloqa ma'lumotlarini e'lon qilsin;

xorijiy davlatlarda tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarini tamomlagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining oliy tibbiy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlari belgilangan tartibda tan olinganligini tekshirsin;

maqsadli qabul o'rinlari bo'yicha tanlovni hududiy buyurtmachilar kesimida alohida o'tkazsin hamda tanlovdan o'tgan talabgor, ish beruvchi va ta'lim beruvchi tashkilot o'rtasida uch tomonlama shartnoma tuzilishini ta'minlasin;

2026-yil 24-avgustga qadar hujjat topshirgan talabgorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni 5-ilovaning 1-shakli bo'yicha Tibbiyot ta'limi va ilm-fan departamentiga taqdim etsin;

2026-yil 25–30-avgust kunlari Markaz va uning hududiy bo'linmalari tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida talabgorlarning belgilangan vaqtda ishtirok etishini, bunda, imtihon o'tkaziladigan hududlardagi oliy tibbiy ta'lim muassasalarining imtihon xonalarini Markaz boshqaruviga tekin foydalanishga berish, talabgorlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, jamoat xavfsizligi qoidalariga amal qilish, elektr energiyasi va internet tarmog'ining uzluksiz ishlashi choralari ko'rsin;

qabul natijalari bo'yicha 2026-yil 7-sentabrga qadar 5-ilovaning 2-shakli bo'yicha hisobotni Tibbiyot ta'limi va ilm-fan departamentiga taqdim etsin;

tanlov natijalari va Komissiya xulosasi asosida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risidagi buyruqlarni 2026-yil 10-sentabrga qadar rasmiylashtirsin;

talabgorlar va fuqarolarning murojaatlarini qonunchilikda belgilangan muddatlarda xolis ko'rib chiqsin, noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan axborot tarqatilishining oldini olsin.

11. Moliya-iqtisod departamenti (Sh.Maxmudov):

2026-yil 31-avgustga qadar 2026/2027-o'quv yilida klinik ordinator (rezident)larni tayyorlashning bir yillik qiymati va to'lov-kontrakt miqdorlari bo'yicha hisob-kitoblarni ishlab chiqsin;

klinik ordinator (rezident)larga 4-ilovada nazarda tutilgan fanni ikki yil davomida jami 36 soat hajmda o'qitish bilan bog'liq xarajatlar hisob-kitoblarini shakllantirsin.

12. Respublika tez tibbiy yordam markazi (A.G'afurov) 2026-yilning 25–30-avgust kunlari klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisliklari bo'yicha kirish imtihonlari o'tkaziladigan binolarda ertalab soat 7:00 dan 19:00 gacha tez tibbiy yordam brigadasi navbatchiligini tashkil qilsin.

13. Matbuot kotibi (F.Sanayev):

buyruq qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida klinik ordinatorlarni tayyorlash istagini bildirgan yetakchi xususiy klinikalardan talabnoma va tasdiqlovchi hujjatlarni qabul qilish to'g'risidagi e'lonni vazirlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirsin;

“O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash” gazetasi (I.Soatova) bilan birgalikda klinik ordinatura (rezidentura) qabul jarayonlarini rasmiy ijtimoiy tarmoq sahifalari hamda ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinishini ta’minlasin.

14. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



E. Adilov